

USTOZNING MAQOMI ULUG` SANALGAN YURT

Yakubova Sitora Sharifovna

BMTI akademik litsey tarix fani o`qituvchisi

Ilm-fan va ta'lim tizimi rivoji insoniyat rivojining asosi hisoblanadi. Jumladan, har qanday davlatning rivojlanishi, farovonligi bevosita shu davlatda ta'lim-tarbiyaga qanday munosabatda ekanligi bilan bog'liqligini hozirgi kunda rivojlangan davlatlar misolida ko`rishimiz mumkin. Ta'lim tizimining taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalaridagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Zero, ilm yo`q joyda o`zgarish va yangilanish bo`lmaydi. Bugungi dunyo tez suratlarda o`zgarmoqda, globallashuv jarayoni, taraqqiyot har daqiqada ilgarilamoqda. Davlatimiz o`zligimizni saqlab qolish, jahonda o`z o`rnimizga ega bo`lish uchun hamma sohalarda, jumladan ta'lim sohasida xalqaro darajada islohotlar olib borilmoqda. Ilm-fan va ta'lim-tarbiyaga mamlakatimizda davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda. Qayerdagi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi o`z holiga tashlab qo'yilsa, shu joyda jamiyat tanazzulga uchraydi. Shuning uchun ham azaldan yurtimizda ta'lim-tarbiya, uni olib borishda mas'ullikni oluvchi tarbiyachilarning, ustozlarning maqomi ulug` sanalgan.

Buyuk mutafakkir Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muxtoj boladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribah pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhim. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga o'qituvchi lozim.[1].Qomusiy olim Ibn Sino o'qituvchining qanday boiishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yol-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat: - bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; - berilayotgan bilimning talabalar qanday o`zlashtirib olayotganiga e'tibor berish; -talimda turh metod va shakllardan foydalanish; - talabalningxotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish; - fanga qiziqтира olish; - berilayotgan bilimlaming eng muhimini ajratib bera olish;

- bilimlarni talabalarga tushunarh, uning yoshi, aqhy darajasiga mos ravishda berish; - har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish daraj asida bo'lishiga erishishi zarur[2]

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganhgidan dalolat beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullariish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u mualhmlarning«diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallmning tarbiyasiga bog'liqdur».Darhaqiqat, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” [3]degan chuqur ma'noli so'zlari zamonlar osha o'z qimmatini yo'qotmagan va yo'qotmaydi ham. Biz farzandlari kelajagi va baxti uchun yashaydigan bolajon xalqmiz. Shu ma'noda, bolalarimiz taqdiri va kelajagini “Otangday ulug'” deb hisoblaydigan ustoz qo'liga ishonib topshiramiz. Ularni yoshlarning porloq kelajagi yo'lida chekkan mashaqqat va to'kkan ko'z nurini hech narsa bilan qiyoslab ham, baholab ham bo'lmaydi. Bugun qanday yutuqqa erishgan bo'lsak, bularning zamirida qadrdon o'qituvchi va ustozlarining hissasi beqiyosdir.

Yurtimiz hududida IX-XII asrlarda birinchi Renessans, XV asrda ikkinchi Renessans porlagani, ilm-fan rivojlangani tarixiy fakt. Yangi O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish davlatimiz siyosiy dasturining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilanishi muhim tarixiy jarayondir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2020 yil 1-oktabr “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan o'tkazilgan tadbirga yig'ilgan o'qituvchi va ziyolilarga murojaatini boshlar ekan, “Biz har birimiz hayotda qanday muvaffaqiyat va natijalarga erishgan bo'lsak, bu yutuqlarda sizlarning beqiyos hissangiz borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz, – deb aytar ekan, ustoz va murabbiylar uchun davlat ahamiyatidagi vazifalarni belgilab quyidagi

fikrlarni ta'kidlab o'tdi: “-Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak”[4]. Davlat ahamiyatidagi islohot va e'tirofning yana bir ko'rinishi shu yili 1-fevral kuni 21 moddadan iborat “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi[5] qonunni imzolanishi bo'ldi.

Ushu qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dunyoda har tomonlama globallashuv avj olayotgan ushbu zamonda davlatimiz tomonidan ilm ahliga, pedagoglarga ko'rsatilgan yuksak darajadagi e'tibor va g'amxo'rlik – ishonamizki, albatta o'z natijasini beradi. Xususan, Vatanimizda ezgu niyatlar bilan boshlayotgan III Renessans poydevorini yaratishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. “Sharq” nashriyoti.-T., 2004.-12 - b.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. “Sharq” nashriyoti.-T., 2004.-16 - b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent.:O'qituvchi, 1992. 7-b
4. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi,” Xalq so'zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet
5. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagi O'RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6786401>